

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
SAMARQAND FILIALI**




“YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI”

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy
o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish
kursi uchun**


O‘qituvchi: Eshnazarova Farida Jo‘rakulovna

Mavzu: Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari



Reja:

- Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.
- Yosh davrlar psixologiyasiga doir mamlakatimiz, xorij olimlarining nazariy yondashuvlari.




«Psixologiya» so‘zi ikkita grek so‘zlaridan - «*psyche*» - jon, ruh va «*logos*»- ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi.





**ARISTOTEL
(er.av.384-322)**

Psixologiya fani inson ruhiyatini o'rganuvchi fan hisoblanadi.




**Psixologiya fanining
300 dan ortiq
tarmoqlari fan sifatida
rivojlanayotganligi
hozirgi kunda
psixologiya fanining
fanlar tizimida oʻrni
yanada mustahkam-
lashayotganligidan
dalolat beradi.**





Yosh davrlari psixologiyasi - turli yoshdagi odamlarning tugʻilganidan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishini va oʻzaro munosabatlarini oʻrganadi.





Yosh davrlari psixologiyasi

- inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu rivojlanishning bosqichlari to'g'risidagi fandır.



Yosh davrlar psixologiyasining umumiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ➡ Psixik jarayonlarning, bilimlarni o'zlashtirishning yosh imkoniyatlarini tadqiq qiladi.
- ➡ Shaxs rivojlanishining muhim omillarini o'rganadi.
- ➡ Psixik ontogenezning umumiy qonuniyatlarini hamda bosqichlarini tadqiq etadi.
- ➡ Har bir yoshning psixologik va individual xususiyatlarini o'rganadi.

Yosh davrlarini tabaqalash nazariyalari

- biogenetik;
- sotsiogenetik;
- psixogenetik;
- psixoanalitik;





Yosh davrlari psixologiyasining tasnifi

- Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi;
- Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari;
- O‘smirlar psixikasi;
- O‘spirinlik davrining psixologik xususiyatlari;
- Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari;
- Psixogerontologiya - keksalik psixologiyasi.


**Y
o
sh**

**t
u
sh
u
n
ch
a
s
i**

biologik

fiziologik

psixologik



ONTOGENEZ



Ontogenez (yunoncha:
ontos - borliq va genez)
organizmning individual
rivojlanishi, uning
shakllana boshlashidan
hayotning oxirigacha
sodir bo‘ladigan
ketma-ket o‘zgarishlar
majmui.

■ E.Gʻ. Gʻoziyev nazariyasi boʻyicha yosh davrlarini tabaqalanishi:

- Chaqaloqlik va goʻdaklik davri – tugʻilgandan 1 yoshgacha.
- Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
- Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
- Kichik maktab yosh davri – 6-10 yoshgacha.
- Oʻsmirlik davri – 10-11yoshdan 14-15 yoshgacha.
- Ilk oʻspirinlik davri – 15-18 yoshgacha.
- Oʻspirinlik davri – 18-22 yoshgacha (talabalik).
- Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha.
- Yetuklik davri 1-bosqichi – 28-35 yoshgacha.
- Yetuklik davri 2-bosqichi – 36-55 (60) yoshgacha.
- Keksayish davri – 61 (56)- 74 yoshgacha.
- Keksalik davri– 75-90 yoshgacha.
- Uzoq umr koʻruvchilar – 90 dan yuqori.



Yosh davrlari klassifikatsiyasi

yosh davrlari	erkaklarda	ayollarda
chaqaloqlik	1 - 10 kun	1 - 10 kun
emiziklik davri	10 kundan 1 yoshgacha	10 kundan 1 yoshgacha
ilk bolalik	1 - 2 yosh	1 - 2 yosh
bolalikning 1 - davri	3 – 7 yosh	3 - 7 yosh
bolalikning 2 - davri	8 - 12 yosh	8 - 11 yosh
o‘smirlik davri	13 - 16 yosh	12 - 15 yosh
o‘spirinlik davri	17 - 21 yosh	16 - 20 yosh
o‘rta yetuklik davri:		
birinchi bosqich	22 - 35 yosh	21 - 35 yosh
ikkinchi bosqich	36 - 60 yosh	36 - 55 yosh
keksalik davri	61 - 75 yosh	56 - 75 yosh
qarilik davri	76 - 90 yosh	76 - 90 yosh
uzoq umr ko‘ruvchilar	90 yoshdan ortiq	90 yoshdan ortiq



Shveytsariyalik psixolog J.Piaje aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi deb ta'kidlaydi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

1. sensomotor intellekti-tug'ilgandan 2 yoshgacha;
2. operatsiyagacha tafakkur davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha;
3. aniq operatsiyalar davri-7,8 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
4. rasmiy operatsiyalar davri 12 yoshdan keyin.



Fransuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri;
- 2) impulsiv harakat davri - tug'ilgandan 6 oylikkacha;
- 3) his-tuyg'u davri (emotsional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg'unlashuvi) davri 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;
- 7) jinsiy yetilish va o'spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

E. Erikson bo'yicha shaxs «meni»ning rivojlanish bosqichlari

- 1 - bosqich (ishonch - ishonchsizlik) - bu hayotning 1 - yili.
- 2 - bosqich (mustaqillik va qat'iyatsizlik) - 2 - 3 yoshlar.
- 3 - bosqich (tadbirkorlik va gunoh hissi) - 4 - 5 yoshlar.
- 4 - bosqich (chaqqonlik va yetishmovchilik) - 6 - 11 yoshlar.
- 5 - bosqich (shaxs identifikatsiyasi, rollar) - 12 – 18 yoshlar.
- 6 - bosqich (yaqinlik va yolg'izlik) - yetuklikning avvali.
- 7 - bosqich (umuminsoniylik va o'ziga berilish) - yetuklik davri.
- 8 - bosqich (yaxlitlik va ishonchsizlik) - keksalik.

Erikson klassifikatsiyasining o'ziga xos qimmat shundaki, unda shaxsning o'zi to'g'risidagi tasavvurlarining jamiyat ta'sirida o'zgarishi nazarda tutiladi.

L.S.Vigotskiy yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Chaqaloqlik davri – 2 oylikgacha.

Chaqaloqlik davri inqirozi.

2. Go‘daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha.

1 yoshdagi inqiroz.

3. Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3 yoshdagi inqiroz.

4. Maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha.

7 yoshdagi inqiroz.

5. Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha.

13 yoshdagi inqiroz.


6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri – 14 yoshdan 18 yoshgacha.

17 yoshdagi inqiroz.

Hozirgi zamon psixologiyasida yosh davrlarini tabaqalanishi

Yosh davrlari	Yosh yillari	Yetakchi faoliyat
Goʻdaklik davri	Tugʻilgandan 1 yoshgacha	Bevosita emotsional muloqot
Ilk bolalik davri	1 yoshdan 3 yoshgacha	Predmetlar bilan harakatlar qilish-timirskilanish
Maktabgacha davri	3 yoshdan 7 yoshgacha	Rolli oʻyinlar
Kichik maktab yoshi davri	6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha	Oʻqish
Oʻrta maktab yoshi (oʻsmirlik davri)	10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha	Shaxsning intim muloqoti
Ilk oʻspirinlik	14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha	Oʻqish jarayonida kasb tanlash
Yoshlik davri	18 yoshdan 30 yoshgacha	Oʻz oʻrnini topish, jamoada qadr-qimmatga erishish
Yetuklikning boshlanishi	30 yoshdan 40 yoshgacha	Kamolotga yetish davri
Yetuklik davri	40 yoshdan 55 yoshgacha	Ustozlik
Qarilik davri	55 yoshdan 90 yoshgacha	Muloqot, donishmandlik, xotiralar bilan yashash
Uzoq umr koʻruvchilar	90 yoshdan ortiq	Oʻzini eplash darajasi

- **E'tiboringiz uchun rahmat!**
-



- **rasmiy veb-sayt**
- **<http://www.samsportedu.uz>**
- **maxsus rasmiy telegram kanal**
 - **<https://t.me/sfmalaka>**